

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 133 (1194), 2024-yil 5-iyul, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



ISHONCH VA HAMJIHATLIKKA ASOSLANGAN SHHT SAMMITIDA MULOQOTLARNI FAOLLASHTIRISH ISTIQBOLLARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 4-iyul kuni Ostona shahrida SHHT Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etdi.



Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raisligida o‘tgan tadbirda Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Xaitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szipin, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Hindiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Subramanyam Jayshankar, shuningdek, Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Chjan

Min va SHHT Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi Ijroiya qo‘mitasi direktori Ruslan Mirzayev qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ochiq fikr almashildi, SHHT doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

O‘zbekiston rahbari sammit ishtirokchilarini qutlar ekan, Qozog‘istonning SHHTga raisligi natijalarini yuqori baholadi, shuningdek, Belarusni tashkilotga a‘zo bo‘lgani bilan samimiy tabrikladi.

Mamlakatimiz yetakchisi ushbu sammit xalqaro vaziyat keskinlashayotgan bir sharoitda o‘tayotganini qayd etdi.

— Bunday murakkab vaziyatda SHHTning asosi bo‘lgan tamoyillarga sodiqligimizni saqlash va yanada mustahkamlash favqulodda muhimdir. Ana shu tamoyillar tufayli Tashkilot bugungi yutuqlarga erishdi, xalqaro masalalarda yuksak nufuz va barqarorlashtiruvchi o‘ringa ega bo‘ldi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz “Shanxay ruhi”ning asosiy tamoyillariga —

o‘zaro ishonch va manfaatdorlik, tenglik, madaniyatlar rang-barangligiga hurmat, bloklardan xoli maqomni saqlab qolish, qarorlar qabul qilishda konsensus prinsipiga qat’iy amal qilishni davom ettirishga chaqirdi.

O‘zbekiston Prezidenti ta’kidlaganidek, bugungi voqeilikda SHHT hamijhatligi zaiflashishiga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. “Biz “SHHT oilasi” jipsligini kuchaytirishimiz, birgalikda rivojlanish tamoyilini hayotga izchil tatbiq etib, ochilayotgan yangi imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishimiz zarur”, dedi Shavkat Mirziyoyev.

SHHT mamlakatlarining ulkan rivojlanish salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun iqtisodiy sheriklikning yangi modelini shakllantirish va barqaror rivojlanishning uzoq muddatli kun tartibini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston rahbari SHHT oldida turgan eng dolzarb vazifalar haqida so‘z yuritir ekan, quyidagilarga e’tibor qaratdi.

Global darajada ishonch taqchilligi misli ko‘rilmagan darajaga chiqqan sharoitda umumiy xavfsizlikni ta’minlashda yangi yondashuvlarni izlash zarurati o‘zib bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan umumiy xavfsizlik va taraqqiyot yo‘lidagi hamijhatlik bo‘yicha Samarqand tashabbusini amalga oshirish dolzarbligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Davlatimiz rahbari muloqotni mustahkamlash va ko‘p tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida SHHTning Yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va transcagaraviy sheriklik kodeksini qabul qilishga chaqirdi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli rais!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Shanxay hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammiti barcha ishtirokchilarini qutlashdan mamnunman. Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga samimiy qabul va bugungi uchrashuvimiz yuksak darajada tashkil etilayotgani uchun bildirilgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Belarusning SHHTga qo‘shilish jarayoni yakuniga yetgani bilan tabriklayman. Bu, hech shubhasiz, sheriklikning qo‘shimcha imkoniyatlarini ochadi. Ushbu voqea munosabati bilan hurmatli Aleksandr Grigoryevich Lukashenkoni samimiy qutlayman.

Biz Qozog‘istonning Shanxay hamkorlik tashkilotiga faol va samarali raisligi yakunlarini yuksak baholaymiz, bugungi majlisimiz kun tartibiga kiritilgan masalalar va qarorlar loyihalarini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Ushbu sammit xalqaro vaziyat keskinlashayotgan bir sharoitda o‘tmoqda. Yangi vayronkor mojarolar paydo bo‘lmoqda, global va mintaqaviy xavfsizlikka xavf va tahdidlar kuchayib bormoqda. Bu davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch kamayayotgan, qarama-qarshilik va ziddiyatlar ortishi natijasida geosiyosiy keskinlik tobora o‘sayotgan vaziyatda kechmoqda.

Xalqaro huquq me‘yorlari va tamoyillari tez-tez buzilmoqda. Tobora kuchayib borayotgan inqiroz va muammolarni hal qilish bo‘yicha jahon hamjamiyatida mavjud bo‘lgan vositalar, afsuski, o‘zining samaradorligini yo‘qotdi.

Bunday murakkab vaziyatda SHHTning asosi bo‘lgan tamoyillarga sodiqligimizni saqlash va yanada mustahkamlash favqulodda muhimdir. Ana shu tamoyillar tufayli Tashkilot bugungi yutuqlarga erishdi, xalqaro masalalarda yuksak nufuz va barqarorlashtiruvchi o‘ringa ega bo‘ldi.

Kelgusida ham “Shanxay ruhi”ning mustahkam zaminini bo‘lgan tamoyillar — o‘zaro ishonch va manfaat, tenglik, madaniyatlar rang-barangligiga hurmat va umumiy taraqqiyotga intilish, qarorlar qabul qilishda konsensus tamoyilining o‘zgarmasligi va Tashkilotning bloklardan xoli maqomini saqlab qolish, uning ochiqdigi, uchinchi mamlakatlarga qarshi qaratilmagani, iqtisodiy, harbiy va siyosiy salohiyatidan qat’i nazar, barcha ishtirokchilarning teng huquqliligi va suverenitetini hurmat qilishga qat’iy rioya etish muhim, deb hisoblaymiz.

Hozirgi kunda SHHT hamijhatligi zaiflashishiga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Biz “SHHT oilasi” jipsligini kuchaytirishimiz, birgalikda rivojlanish tamoyilini hayotga izchil tatbiq etib, ochilayotgan yangi imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishimiz zarur.

Buning uchun bizda barcha shart-sharoitlar mavjud. Jahon aholisining 40 foizdan ortig‘i, global yalpi ichki mahsulotning chorak qismidan ko‘prog‘i mamlakatlarimiz hissasiga to‘g‘ri keladi. Hech shubhasiz, ushbu beqiyos salohiyatni ro‘yobga chiqarish bizdan iqtisodiy sheriklikning yangi modelarini shakllantirishni va SHHT doirasida barqaror rivojlanishning uzoq muddatli kun tartibini ishlab chiqishni talab etadi.

Shuni ta’kidlashni istardimki, O‘zbekiston 2030-yilga borib, milliy iqtisodiyot hajmini ikki barobar oshirishga qaratilgan chuqur o‘zgarishlarni davom ettirmoqda. Bunga, avvalo, innovatsion va yuqori texnologiyali tarmoqlarni shakllantirish, “yashil” va raqamli texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanadigan energetika ulushini tubdan oshirish hisobidan erishishga intilyapmiz.

Hurmatli hamkasblar!

Bizning nuqtayi nazarimiz bo‘yicha SHHT oldida turgan eng dolzarb vazifalar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishga ijozat bergaysiz.

Birinchi. Global darajada ishonch taqchilligi misli ko‘rilmagan darajaga chiqqan sharoitda umumiy xavfsizligimizni ta’minlashda yangi yondashuvlarni izlash zarurati o‘zib bormoqda.

Shu bois, hozirgi paytda umumiy xavfsizlik va taraqqiyot yo‘lidagi hamijhatlik bo‘yicha biz ilgari surgan Samarqand tashabbusining ahamiyati har qachongidan ham dolzarbdir.

SHHTning Yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va transcagaraviy sheriklik kodeksi qabul qilinishi hozirgi yangi sharoitda muloqotni mustahkamlash va ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

Ikkinchi. Iqtisodiy sohada hamkorlik bo‘yicha strategik yuksalishga erishish. O‘zbekistonning Tashkilotga a‘zo davlatlar bilan savdo aylanmasi o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha 20 foiz, joriy yil boshidan buyon esa yana 15 foizga o‘tdi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN OZARBAYJONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 5-6-iyul kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari Shusha shahrida bo‘lib o‘tadigan Turkiy davlatlar tashkilotining “Transport o‘zaro bog‘liqligi va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish orqali barqaror kelajakni barpo etish” mavzusidagi norasmiy sammitda ishtirok etadi.

Sammit davomida ko‘p tomonlama

hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot, transport-kommunikatsiya va investitsiya-moliya sohalarida, shuningdek, “yashil” iqtisodiyot, qayta tiklanadigan energetika, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishlarida yanada kengaytirish masalalari muhokama qilinadi.

Delegatsiyalar rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalarni ham ko‘rib chiqadilar.

Tadbir yakunida qator qo‘shma hujjatlar qabul qilinishi ko‘zda tutilgan.

O‘ZA



Ekspertlar fikri

MAMLAKATLARNING TASHKILOT ASOSIY TAMOVILLARIGA SODIQ QOLISHI SHHTNING XALQARO MUNOSABATLARDAGI ROLINI YANADA OSHIRADI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-4-iyul kunlari Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti sammiti doirasidagi tadbirlarda ishtirok etdi.



4-iyul kuni bo‘lib o‘tgan SHHT sammitining asosiy tadbirlari Belarus Respublikasining tashkilotga to‘laqonli a‘zo sifatida qabul qilinishi bilan tarixda qoladigan bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan SHHT davlat rahbarlari tomonidan tashkilotga a‘zo mamlakatlarning xalqaro axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha hamkorlik rejasini hamda Davlat rahbarlari kengashining Yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va sheriklik tamoyillari to‘g‘risidagi bayonoti tasdiqlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Shanxay ruhi”ning asosiy tamoyillariga sodiqlik va “SHHT oilasi” jipsligini kuchaytirish, birgalikda rivojlanish tamoyilini hayotga izchil tatbiq etib, ochilayotgan yangi imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishga chaqirdi.

Davomi 3-betda



www.yuz.uz

yuznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz



Ekspertlar fikri

Boshlanishi 1-betda

Xavfsizlik, iqtisodiyot, transport, investitsiya, axborot texnologiyalari, ijtimoiy rivojlanish va himoya sohalarida ham qator tashabbuslar ilgari surildi.

Xalqaro ekspertlar Ostona sammiti yakunlarini sharhlar ekan, O‘zbekiston SHHT doirasidagi hamkorlikni faollashtirish va chuqurlashtirish tashabbuskorlaridan biri bo‘lib qolayotganini, shuningdek, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutishda davom etayotganini ta’kidlamogda.



Ming CHENG,
Merzeburg amaliy fanlar
universiteti huzuridagi davlat
kolleji direktori, professor
(Germaniya):

— Mazkur tadbir O‘zbekiston faol xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga intilishining muhim ko‘rsatkichidir. O‘zbekiston rahbarining sammitdagi ishtiroki mamlakat mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi. Bu, shuningdek, O‘zbekistonning terrorizm, ekstremizm va xavfsizlikka tahdidlarga qarshi kurashga hissa qo‘shish qat‘iyatini yaqqol ifoda etadi.

SHHTga a‘zo davlatlar bilan yaqin hamkorlik qilish orqali O‘zbekiston mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutmogda.

Iqtisodiy hamkorlik sohasida Prezident Shavkat Mirziyoyevning umumiy iqtisodiy va energetika bozorini yaratish bo‘yicha

tashabbuslari juda dolzarb. SHHT doirasida savdo va investitsiyani rivojlantirishga sodiqligi nafaqat iqtisodiy integratsiyani, balki mintaqadagi iqtisodiy barqarorlik va o‘sishni ta’minlaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish ham sammitning asosiy mavzulariga aylandi va O‘zbekiston ekologik barqarorlikka erishish tarafdori ekanini yana bir bor tasdiqladi. O‘zbekiston qo‘shma ekologik loyihalar va barqaror rivojlanish strategiyalarini qo‘llab-quvvatlash orqali tabiiy resurslarni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishga tayyorligini namoyish etmogda.

Gumanitar va madaniy hamkorlik sohasida O‘zbekiston a‘zo davlatlar o‘rtasida madaniy almashinuv va gumanitar aloqalarni mustahkamlashga harakat qilmogda. Ushbu sa’y-harakatlar o‘zaro tushunish va hamkorlikni chuqurlashtirishga, mintaqaning tinch va farovon kelajagini ta’minlashga xizmat qilaypti.

SHHTning kengayishi va Belarusning ushbu tuzilmaga qo‘shilishi hamda xalqaro hamkorlar bilan aloqalar ham O‘zbekiston rahbariyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanmogda.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston tashkilotning birligini mustahkamlash uchun yangi a‘zolar hamda hamkorlar bilan munosabatlarga ochiqligi va tayyorligini namoyon etmogda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning faol roli va sammitning asosiy mavzulariga qo‘shgan hissasi O‘zbekistonning SHHT doirasida yetakchi va konstruktiv kuch bo‘lish qat‘iyatini tasdiqladi.

Fariza SHAM,
Malayziya Islom sivilizatsiyasi instituti direktori:



oshirilgan bo‘lsa, 16 tasi amalga oshirish bosqichida.

O‘zbekiston tashqi siyosatining ustunligi shundan dalolat beradiki, rasmiy Toshkent tomonidan SHHT doirasida ilgari surilayotgan, mintaqani barqaror rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar a‘zo davlatlarning milliy manfaatlariga to‘la javob beradi, shu tufayli ular barcha ishtirokchi davlatlar tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanmogda. Shuningdek, mamlakat mintaqaviy hamkorlik, xavfsizlik va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash tarafdori.

SHHTning bu galgi sammiti ham bundan mustasno bo‘lmadi. Unda O‘zbekiston yetakchisi barcha ishtirokchilarni geosiyosiy keskinlik va ziddiyatlar kuchaygan sharoitda tashkilotning asosiy tamoyillariga sodiq qolishga chaqirdi. Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan SHHT davlat rahbarlari tomonidan tashkilotga a‘zo mamlakatlarning xalqaro axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha hamkorlik rejasida hamda Davlat rahbarlari kengashining Yaxshi qo‘shnchilik, ishonch va sheriklik tamoyillari to‘g‘risidagi bayonoti tasdiqlandi.

Darhaqiqat, bugungi kunda SHHT mintaqadagi global jarayonlarga ta’sir o‘tkazishga qodir eng yirik siyosiy va iqtisodiy ishtirokchilarni birlashtirgan nufuzli xalqaro tashkilotga aylandi. Uning platformasi asosiy a‘zo davlatlar bilan teng huquqli siyosiy muloqot va xalqaro hamda mintaqaviy siyosatning keng ko‘lamli masalalari bo‘yicha fikr almashishni qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan e’lon qilingan bir qator yangi tashabbuslar SHHT sammitlari doirasida muhim qaror va hujjatlarni qabul qilish uchun mustahkam zamin yaratishda davom etishiga ishonchim komil.

— O‘zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotining asoschisi va faol a‘zosi sifatida ushbu tashkilot doirasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishning keyingi strategiyasini belgilashda yetakchi o‘rinni egallaydi.

Xususan, 2017-yildan buyon O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-logistika, innovation va boshqa sohalaridagi hamkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan 91 ta tashabbus ilgari surildi. Ularning 75 tasi amalga oshirildi.

Laslo VASH,
Vengriya xalqaro munosabatlar
instituti prezidentining katta
maslahatchisi:

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining Ostona sammiti va uning doirasida o‘tkazilgan ikki tomonlama uchrashuvlardagi ishtiroki mamlakatning ko‘p vektorli tashqi siyosati nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston SHHTning faol a‘zosi, bu borada tashkilotning kengayishi rasmiy Toshkentning roli va ahamiyatini yanada oshiradi. Shanxay platformasi O‘zbekiston juda faol bo‘lgan Markaziy Osiyo integratsiya jarayonlariga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, muhim strategik maqsad — O‘zbekiston iqtisodiyotini mustahkamlashdir. Uning harakatlantiruvchi kuchi — ko‘p vektorli tashqi siyosat va mintaqaviy integratsiya jarayonlari hamda



tobora ahamiyati ortib borayotgan “O‘rta yo‘lak” hisoblanadi.

O‘zbekiston nafaqat Sharq — G‘arb munosabatlari tizimida muhim ishtirokchi, balki Afg‘oniston bilan aloqalarning progressiv tizimi tufayli Shimol — Janub hamkorligining kalitidir. Shanxay hamkorlik tashkilotining mustahkamlanishi O‘zbekistonning barcha loyihalari uchun mos xavfsizlik asosini yaratadi.

MAMLAKATLARNING TASHKILOT ASOSIY
TAMOVILLARIGA SODIQ QOLISHI SHHTNING XALQARO
MUNOSABATLARDAGI ROLINI YANADA OSHIRADI

Omid RAHIMIY,
Sharq strategik tadqiqotlar instituti ilmiy
xodimi (Eron):

— O‘zbekiston SHHT tashkil etilganidan buyon tashkilotning eng muhim a‘zo davlatlaridan biri hisoblanadi.

Bu O‘zbekistonning Markaziy va Janubiy Osiyodagi geosiyosiy o‘rni bilan bog‘liq. Bilamizki, O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining markazida joylashgan

va ularning o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlashda o‘rni beqiyos.

Mamlakat buyuk madaniy va tarixiy merosga ega hamda madaniy yo‘nalishlarni belgilaydi. Respublika 2017-yildan buyon SHHT, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar sammitlarida faol ishtirok etib, turli yo‘nalishlarda muhim tashabbuslarni ilgari surmogda.

Eng muhim tashabbus transport va logistika sohasiga tegishli. Masalan, Afg‘onistondagi tinchlik va farovonlikka hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishi, dengizga chiqish imkonini bo‘lmagan mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan Transaf‘on yo‘lagini qayd etishimiz mumkin.

O‘zbekistonda startap kabi innovatsiyalarga asoslangan tarmoqlar qo‘llab-quvvatlanayotganining guvohi bo‘lyapmiz, bu borada SHHT mamlakatlari o‘rtasida yaxshi aloqalar o‘rnatilgan.

Eronning SHHTga a‘zoliqi O‘zbekistonning tashkilotga raisligi davrida yakuniga yetdi. Bundan tashqari, mamlakat SHHTni mustahkamlash va rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Edil OSMONBETOV,
qirg‘izistonlik siyosatshunos:

— O‘zbekiston Shanxay hamkorlik tashkiloti makonidagi pragmatik siyosatga ega bo‘lgan eng faol davlat bo‘lib, so‘nggi besh yil davomida Prezident Shavkat Mirziyoyev SHHT sammitlarida ko‘plab muhim va dolzarb tashabbuslarni ilgari surgani shundan dalolat beradi.

SHHT doirasidagi hamkorlikning muhim jihatlaridan biri mintaqaviy xavfsizlikka tahdid, xususan, Afg‘oniston muammosidir. Bunday sharoitda O‘zbekistonning o‘rni yuqori bo‘lib, u Markaziy va Janubiy Osiyoni birlashtirishga intiladi.

Geosiyosiy keskinlik sharoitida O‘zbekistonning kambag‘allikka qarshi kurashish va oziq-ovqat xavfsizligi masalasini hal etish tashabbusi muhim ahamiyatga ega. Yaqin kelajakda mintaq mamlakatlari global muammo bo‘lgan halokatli oziq-ovqat tanqisligi yuzaga kelishi kutilmogda.

Iqtisodiy, siyosiy, transport-kommunikatsiya sohasidagi hamkorlikning global muammolarini hal qilish uchun aniq chora-tadbirlar va ularni amalga oshirish tizimi zarur.



Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev a‘zo mamlakatlarni tashkilotning asosiy tamoyillariga sodiq qolishga chaqirdi. Buning natijasida SHHTning bugungi muvaffaqiyatlari, uning yuksak nufuzi va xalqaro munosabatlardagi roli yanada oshadi.

“Dunyo” AA

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA
BIRGALIKDA ERISHAMIZ

Har qanday mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi o‘rni va ahamiyati unga tashriflarda yaqqol ko‘rinadi. Iyul ham mamlakatimiz uchun oliy darajadagi hamkorlik tashrifi bilan boshlandi. BMT Bosh kotibining yurtimizga kelishi, davlatimiz rahbari bilan samarali uchrashuv o‘tkazgani ko‘p tomonlama ahamiyatli jarayondir.



Ulug‘bek INOYATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi fraksiya rahbari

O‘zbekiston BMT va uning muhim institutlari bilan yaqin hamkorlik qilayotgan, real natijalarga erishayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. 140 ta qo‘shma dastur va loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani, mamlakatimiz tashabbusi bilan tashkilot Bosh Assambleyasining 10 ta maxsus rezolyutsiyasi qabul qilinganini fikrimiz dalilidir.

Nuqtayi nazar

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, energetika loyihalari, mahalla instituti faoliyati bilan yaqindan tanishib, yurtimizdagi o‘zgarishlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Ko‘proq quyi tizimdagi odamlar bilan muloqot qilib, islohotlarning inson huquq va manfaatlari uchun naqadar muhimligiga bevosita amin bo‘ldi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg‘un va hamohang bo‘lib, islohotlar izchil amalga oshirilmogda. Xususan, sog‘liqni saqlash, sifatli ta’lim, gender tenglik, toza suv va sanitariya, arzon va toza energiya, munosib ish o‘rinlari hamda iqtisodiy o‘sish, tengsizlikni kamaytirish kabi vazifalar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida o‘z ifodasini topgan.

Oliy darajadagi muzokaralar chog‘ida global va mintaqaviy tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash, O‘zbekiston hamda BMT o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish holati muhokama qilindi. Birgalikda global kun



tartibidagi yirik xalqaro anjumanlar, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligi, turizmni rivojlantirish, kambag‘allik va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish hamda bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo‘yicha muhim tadbirlar o‘tkazilmogda.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish O‘zbekistonning oliy davlat mukofotlaridan biri — “Oliy Darajali Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanganida ham chuqur ramziy ma’no bor. Davlatimiz rahbari janob Guterrishning O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi

hamkorlikning bugungi yuksak darajaga yetishiga qo‘shgan shaxsiy hissasini alohida e’tirof etdi.

O‘z navbatida, BMT Bosh kotibi davlatimiz rahbarining mintaqaviy siyosatini yuksak baholadi: “Markaziy Osiyoda tarqoqlik juda

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish O‘zbekistonning oliy davlat mukofotlaridan biri — “Oliy Darajali Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanganida ham chuqur ramziy ma’no bor. Davlatimiz rahbari janob Guterrishning O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi hamkorlikning bugungi yuksak darajaga yetishiga qo‘shgan shaxsiy hissasini alohida e’tirof etdi.

keng ildiz otgan edi. Sizning faoliyatingiz tufayli Markaziy Osiyo mintaqasida yangicha muhit yaratildi. Bu do‘stlik, o‘zaro hurmat, muloqot, hamjihatlikda masalalarni ko‘rib chiqish, mintaqada mavjud bo‘lgan qiyinchiliklarni yengib o‘tishga asoslangan muhit bo‘ldi. Markaziy Osiyoni dunyo sivilizatsiyasi markazi deb bilaman. Bunga ishonch hosil qilish uchun Samarqand va Buxoroga borishning o‘zi kifoya qiladi”.

Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, millatlar o‘rtasida do‘stlik munosabatlarni rivojlantirish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o‘rtasida mustahkam hamkorlikka intiluvchi nufuzli tashkilot bilan aloqalar yanada mustahkamlanib borayotganini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz. Har bir inson uchun muhim bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga birgalikda erishamiz.

2024-yil 5-iyul, 133-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



vuz.official



yuz.uznews



yuz

Dolzarb mavzu

Aholini ro'yxatga olish umumdavlat miqyosidagi keng ko'lamli tadbir bo'lib, aholi to'g'risidagi ishonchli axborot manbayi hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda aholini ro'yxatga olish so'nggi bor 1989-yili o'tkazilgan. O'shanda aholimizning umumiy soni 19 million 700 mingni tashkil etgan. Yangidan ro'yxatga olish 2022-yilga reja qilingan edi, pandemiya sabab bu ishlar ortga surildi. Ro'yxatga olish aholi soni, jinsi va yosh tarkibi, yashash sharoiti va migratsiyasining to'liq tasvirini shakllantiradi. BMT aholini kamida 10 yilda bir marta ro'yxatga olishni tavsiya qiladi. Bu milliy siyosatni ishlab chiqish va rejalashtirish, shuningdek, mamlakat rivojlanishini kuzatish uchun asosiy axborotlarni taqdim etishda muhimligi bilan ahamiyatlidir.



Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Aholi to'g'risidagi ma'lumotlar turli ma'muriy manbalar, davlat idoralari ma'lumotlar bazalarida mavjud. Biroq ularning barchasida axborot to'liq emas. Ularda nomuvofiqliklar ko'zga tashlanmoqda.

Xo'sh, aholini ro'yxatga olish qaysi jihatlar bilan ahamiyatli? Mutaxassislar aholini ro'yxatga olish mamlakat fuqarolariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Masalan, maktab yoshidagi bolalar soni haqidagi ma'lumotlar maktab qurish bo'yicha rejalarni muvofiqlashtirishga yordam bersa, hududlar kesimida qayerda va qaysi sohada yangi ish o'rinlariga ehtiyoj mavjudligi, qanday mutaxassislar kerakligini bilish uchun ishsizlar soni va ularning malaka darajasi aniq bo'lishi lozim. Favqulodda vaziyatlarda FVV xodimlari, shuningdek, shifokorlar aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida zarur yordam ko'lamini belgilaydi.

Bu jarayon tabirkorlik rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aholi soni va daromadi, turar joyga ehtiyoji to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan holda, masalan, maishiy texnika ishlab chiqaradigan korxonalar ishlab chiqarish hajmini prognoz qilishi, importchi kompaniyalar esa xaridlarni rejalashtirishi va zararni minimallashtirishi mumkin.

Aholini ro'yxatga olish makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni kelgusi 10-20 yillik davrga prognoz qilish uchun ham zarur. Statistik ma'lumotlar manzilli dasturlarni ishlab chiqish, fuqarolar salomatligini mustahkamlash, oilalarga moddiy ko'maklashishda alohida o'rin tutadi.

Shuningdek, ma'lumotlar davlat maktablari, kutubxonalar, sog'liqni saqlash markazlari, energiya resurslari va suv ta'minotiga ehtiyojni ko'rsatib beradi. Bu jarayon natijalari hukumat tomonidan mahalliy hokimiyat organlariga ajratilishi zarur bo'lgan mablag' miqdorini aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

— Respublikamizda demografik jarayon holatini o'rganishda aholini ro'yxatga olish muhim, — deydi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti Sherati Sultonov. —

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda dastlabki aholini ro'yxatga olish jarayoni 1897-yilda o'tkazilgan, ushbu tadbir ma'lumotlari XIX asr oxirida yurtimizda mavjud oilalar, aholi soni, aholining yoshi va jinsi, etnik tarkibi, tug'ilish, o'lim kabi demografik jarayonlar haqida tasavvur hosil qilishga yordam bergan.

Keyinchalik bu jarayon bir necha bor o'tkazilgan. Aholining rivojlanishi uning tarkibiy tuzilishi, xususiyati va demografik jarayonlarning uzluksiz ravishda o'zgarib borishi ta'sirida sodir bo'ladi.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Aholini ro'yxatga olish qanday foyda keltiradi va uni kechiktirish nimasi bilan xatarli?

— Aholini ro'yxatga olish juda muhim tadbir, — deydi Statistika agentligi boshqarma boshlig'i Qobil Berdiqulov. — Shu bilan birga, u

2020-yil 11-noyabrda “Aholini ro'yxatga olish to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Unda bu tadbiri o'tkazish uchun Statistika agentligi mas'ul etib belgilandi. Mazkur qonunga muvofiq, aholini ro'yxatga olishni tashkil etish, uni o'tkazish va natijalarini e'lon qilish tartiblari belgilab berildi.

Aholini ro'yxatga olish tadbiri doirasida kadastr ma'lumotlari ham yangilanishi kutilmoqda, chunki statistika organlari nafaqat aholini, balki uy-joy fondini ham ro'yxatga oladi.

Ayni paytda har bir mahallaning 2022-yilda boshlangan sxematik rejasi, ya'ni xaritasi kadastr tashkiloti xodimlari bilan birgalikda tayyorlanmoqda. Unga olti mingdan ortiq xodim jalb qilinib, xonadonlarning raqamlanish holati, buzilgan yoki yangi qurilayotgan uylar xatlovdan o'tkazildi.

Bu jarayon hozir yakuniy bosqichda. Turar joy fondini ro'yxatga olish asosida to'liq raqamli xarita ishlab chiqish rejalashtirilmoqda. Buning uchun turar va noturar joy binolar, korxonalar va boshqa obyektlarning soni va holatini aniqlash lozim. Bu ma'lumotlar keyinchalik aholi punktlari infratuzilmasini rejalashtirish uchun asos bo'ladi.

Bunday tadbir ko'plab mamlakatlarda o'tkaziladi. Xususan, Germaniyada 2011-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalari



aholining shaxsiy hayoti va sog'lig'ini himoya qiladi. Olingan ma'lumotlardan ko'p maqsadlar, jumladan, uy-joy yetishmasligining sabablarini o'rganish va muammoni qanday hal qilish choralarini topish uchun foydalaniladi.

Davlatimiz rahbari farmoni qabul qilingan 2019-yilda aholini ro'yxatga olishning qiymati 120 million dollar atrofida edi. O'shanda bu jarayonni qog'oz shaklida o'tkazish rejalangan, lekin raqamlashtirish keng joriy etilishi natijasida bu qiymat ikki barobar qisqarishi kutilmoqda.

2021-yilda mamlakatimizning to'rtta hududi — Toshkent shahrining Yashnobod, Andijon viloyatining Xo'jaobod, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanlari hamda Xorazm viloyatining Xiva shahrida sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish tadbirlari o'tkazildi.



Shuningdek, agentlik tomonidan aholini ro'yxatdan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida respublikaning barcha kichik tumanlari sxematik xaritalari yangilanib, turar joy va noturar joy binolar ro'yxati shakllantirildi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, uy xo'jaliklarining 17 foizdan ortig'i ro'yxatga olish raqamiga ega emasligi aniqlandi. 30 mingdan ziyod buzilgan bino xaritalarda hali ham aks ettirilmoqda. Aholini ro'yxatga olish uchun ushbu kamchiliklarni bartaraf etish lozim.

Biroq aholini ro'yxatga olish qanchalik ortga surilsa, aholi to'g'risida ilmiy asoslangan siyosat va investitsiya dasturlarini ishlab chiqish imkoniyati beradigan muhim ma'lumotlarni olish imkoniyatidan shunchalik uzoqlashiladi. Mamlakat bo'ylab faol qurilish ishlari olib borilayotgani hisobga olinsa, 2022-yil avgust oyida tuzilgan aholini ro'yxatga olish xaritalari o'z ahamiyatini yo'qotadi. Sezilarli kechikish ko'plab uslubiy hujjatlar va o'quv materiallarini yangilashni talab qiladi.

Bundan tashqari, kechiktirish xodimlar va aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik jarayoni uchun hukumat tomonidan kiritilgan investitsiya yo'qotilishiga olib keladi. Natijada aholini ro'yxatga olishdan manfaatdor tomonlarga unga tayyorgarlik ko'rish uchun resurslarni safarbar qilish qiyin bo'lishi mumkin.

Prezidentimizning joriy yil 4-martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan Statistika agentligiga 2025-2026-yillarda aholini ro'yxatga olish ishlari tashkil etish vazifasi yuklatilgan.

Jumladan, kutilayotgan jarayonni aholiga batafsil tushuntirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari foydalanish uchun videorolik, banner, flayer va bukletlar tayyorlash, 2021-yilda o'tkazilgan sinov natijalari va xalqaro ekspertlar tavsiyalari asosida aholini ro'yxatga olish savolnomalari shakllarini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Agentlik xalqaro tajriba va ekspertlarning tavsiyalari asosida “Aholini ro'yxatga olish” axborot tizimini takomillashtirishi va ro'yxatga olish natijalari chiquvchi jadvallar namunalarni shakllantirishi, aholini ro'yxatga olishning tashkiliy rejasini ishlab chiqishi kerak.

Aholini ro'yxatga olish 2025-2026-yillarda o'tkazilishi, natijalari esa 2026-2027-yillarda tayyorlanishi va e'lon qilinishi lozim.

Bundan tashqari, 2025-yil oxirigacha Statistika agentligi qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirishga doir uslubiy hujjatlar ishlab chiqishi kerak. Bu mamlakat agrar sektori holati — yer uchastkalari hajmi, yer egaligi, yerdan foydalanish turlari, maydonlar, sug'orish, chorva mollari, jalb qilingan mehnat va boshqa qishloq xo'jaligi resurslarini aks ettiruvchi tadqiqotdir.

2027-2028-yillarda qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish ishlari amalga oshirish yuzasidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash rejalashtirilgan.

Bir so'z bilan aytganda, bu tadbir juda katta ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, ertangi istiqbol, yurtimizning kelgusidagi iqtisodiy rivoji uchun muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, bu jarayonni sifatli va to'liq qamrov bilan o'tkazishda har bir fuqaroning faolligi zarur.

AHOLINI RO'YXATGA OLISH

2025-2026-yillarga mo'ljallangan ushbu jarayonning BIZ UCHUN AHAMIYATI NIMADA?


asosida hukumat mamlakat turar joy fondining to'liq manzarasiga ega bo'ldi. Bunda turar joy turi (xonadon, xususiy uy, yotoqxona), xonalar soni, istish tizimining mavjudligi va turi hisobga olingan.

Xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, turar joy fondini ro'yxatga olish zarur. Chunki u

Bu tadbir uch xil usulda bo'ldi. Ya'ni internet tarmog'i, qog'oz shaklida va planshet qurilmasi orqali.

Sinov natijalariga ko'ra, qog'oz shakllari to'ldirish va ulardan ma'lumotlarni elektron tizimlarga ko'chirish juda ko'p vaqt va mablag' talab qiladi. Shu bois, Statistika agentligi milliy darajada aholini ro'yxatdan o'tkazish uchun qog'oz shakldan voz kechishga qaror qildi.

Sinov natijalari ushbu jarayonni elektron



Farmonda aholini ro'yxatga olishning tashkiliy va metodik prinsiplari, dasturiy-texnik ta'minoti hamda ma'lumotlarni qayta ishlashning texnologik jarayonlarini sinovdan o'tkazish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish jarayonlaridagi mas'uliyatini yanada oshirish borasida qator vazifalar belgilandi.



Hozir asalarichilikda eng dolzarb palla. Chunki shifobaxsh asal yig'ish uchun qulay va sharoit muhim o'rin tutadi. Shu bois, ushbu yo'nalishni asosiy daromad manbayiga aylantirgan tadbirkorlar asalari qutilarini ko'chirib yurish orqali samaradorlikka erishadi.

Qiziltepa tumanidagi asalarichilikka ixtisoslashgan “Akmal shifo asali” fermer xo'jaligi rahbari Umid Murodov ham ayni vaqtda 200 ga yaqin qutini Nurota tumanidagi gul nektariga boy yaylovlarda parvarishlamoqda.

— Asalari — haqiqiy xazina. Uning asali, zahri, propolisi ko'p xastaliklarga davo, — deydi Umid Murodov. — Mumi sanoatimizda zarur xomashyo. Bahorda asalarilar uchun ko'payish jarayoni bilan birga asal yig'ish mavsumi boshlanadi. Hozir bu yilgi dastlabki hosilni olish arafasidamiz. Bir asalari oilasidan o'rta 20-25 kilo mahsulot olinadi. Keyingi jarayonda asalari qutilarini paxta dalalariga yaqiniga ko'chiramiz. Asalari g'o'za gullarini changlatishi bilan birga ko'p miqdorda bol ham beradi.

Asalarichilik nektar yig'ish uchun qulay joy topish va tayyor asalni yig'ib olishdangina

iborat emas. Uni yilning to'rt faslida alohida parvarishlash, zararkunandalardan, o'ziga xos kasalliklardan asrash, yangi asalari uyalarini tayyorlash va vaqti-vaqti bilan almashtirib turish, naslli ona asalarilarni yetishtirish, qisqasi, tinimsiz mehnat va bilim talab etadi.

Navoiy viloyatida ham asalarichilik tobora rivojlanmoqda. Ayni vaqtda viloyatda asalarichilik bilan shug'ullanuvchi subyektlar soni mingdan ortiq bo'lib, jami 59 ming 700 asalari oilasi mavjud. Ularning 5200 tasi fermer xo'jaligi, 52 ming 200 tasi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2200 tasi esa qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda parvarishlanmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi “Asalarichilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi ekinlarini

asalari bilan changlatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga ko'ra, mamlakatimizda asalarichilik tarmog'ini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida rivojlantirish, asalarichilik faoliyatini samarali tashkil etish uchun yanada qulay sharoit yaratish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirishda asalari bilan changlatish amaliyotini keng joriy etish nazarda tutilgan.

Har bir sohaga ilmiy yondashuv rivojlanishga asos bo'lishi amaliyotda o'z isbotini topmoqda. E'tibor qilyalik, viloyatda oldingi yillarda faqat asalarilarning mahalliy zoti parvarishlanib, hosildorligi o'rta 10-12 kiloni tashkil qilar edi. Ilmiy o'rganishlar natijasida xorijdan “Karpas” zotli ona asalari keltirilib, parvarishi yo'lga qo'yilishi natijasida hozir har bir asalari oilasining hosildorligi 2-3 barobar oshdi.

Bugun “Akmal shifo asali” fermer xo'jaligida naslli ona asalarilar ham ko'paytirilib, nafaqat viloyat hududidagi subyektlarga, balki qo'shni viloyatlarga ham yetkazib berilmoqda.

— Asalarichilikka ixtisoslashgan har bir xo'jalikda naslchilik yo'nalishiga alohida

e'tibor qaratilmoqda, — deydi Navoiy viloyati asalarichilar assotsiatsiyasi raisi Ulug'bek Murodov. — Yosh ona asalarilar maxsus qutichada parvarishlanib, ko'paytirib boriladi. Yangi keltirilgan asalari zotlarini shu tarzda mahalliy sharoitga moslashtiraymiz. Albatta, buning uchun bilim va ko'nikma zarur. Shuni inobatga olgan holda, asalarichilik xo'jaliklari maxsus qo'llanmalar bilan ta'minlanib, o'zaro tajriba almashish yo'lga qo'yilgan.

Asalarichilikni rivojlantirish, aholi va tadbirkorlar mehnati samarasi o'laroq, hozir viloyatda asal yetishtirish hajmi yiliga 1200 tonnaga yetdi. Natijada 2016-yili asal mahsuloti aholi jon boshiga 700-800 gramm dan to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yil bu ko'rsatkich 1,1-1,2 kiloni tashkil etmoqda.

— Asalarichilik — serdaromad soha. Shuning uchun aholi, ayniqsa, yoshlarning o'zini o'zi band qilishida ushbu yo'nalish alohida o'rin tutadi, — deydi Ulug'bek Murodov. — Hozir ikki, to'rt yoki undan ortiq asalari qutisi bilan xonadonida oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yayotganlar ko'p. Tajribali asalarichilar



bilan birga ularga zarur tavsiyalar berib bormoqdamiz. Sababi, asalarichilikning o'ziga xos mashg'ullar va nozik jihatlar bor. Shuning uchun endi shug'ullana boshlayotganlarga tajribali mutaxassislar ko'magi zarur. Tumanlar bo'yicha mutaxassislarni jalb qilganimiz. Ular o'z hududidagi asalarichilarga muntazam maslahat va tavsiyalar berib boradi.

Bugun asalari nafaqat shifobaxsh mahsulot yig'ish, balki qishloq xo'jaligi ekinlarini tabiiy changlatish va mo'ljil hosildorlikka erishishda ham muhim omil bo'lmog'ay. Sohaga ilmiy yondashuvlar esa yuqori samaradorlikni ta'minlamog'ay.

G'olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O'ZBEKISTON — DUNYO YOSHLARI nigohida

E'tirof



Davlatimiz rahbari xalqaro minbarlarda yoshlar uchun qulay imkoniyat yaratish, ular o'rtasida o'zaro ishonch muhitini shakllantirish, mushtarak maqsadlar sari intilayotgan yigit-qizlarning ahlil va inoq bo'lishi uchun ko'plab konseptual, tashkiliy va huquqiy ahamiyatga ega taklif hamda tashabbuslarni ilgari surib kelmogda.

Ana shu taklif va tashabbuslarning amaldagi ifodasi sifatida tashkil etilayotgan forum va festivallar yoshlarni o'zaro do'stlik ruhida kamol toptirish, bu borada strategik hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, mamlakatlar o'rtasidagi aloqa va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash, mazkur faoliyat ko'lamini kengaytirishga zamin hozirlamoqda. Yurtimizda ko'tarinki ruhda

o'tkazilgan Butunjahon yoshlar festivali 100 gacha davlatdan kelgan salkam ming nafar ishtirokchini ezuq maqsadlar yo'lida birlashtirib, qizg'in muloqot maydoni yaratdi. Azaliy munosabatlarni ravnaq toptirish, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hamkorlikni kuchaytirish borasida fikr almashilgani, hamkorlik yo'lga qo'yilgani festivalning ahamiyatidan darak beradi.

Shabnam Karim RAHIMZODA,

Tojikiston Respublikasi hukumati huzuridagi Yoshlar ishlari va sport qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari:

— Butunjahon yoshlar festivali O'zbekiston yoshlarining faolligi va tashabbuskorligini yana bir bor namoyon etdi. Biz bu festivalda ko'hna va navqiron Samarqandni yangidan kashf qildik. Qadimiy shahar milliy an'ana va qadriyatlarini, urf-odatlarini, samimiy va mehmondo'st xalqi bilan barchaning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

O'zbekistonda yoshlar siyosatiga oid islohotlar bilan to'liq tanishib chiqdim. Ayniqsa, ta'lim sohasidagi ishlar katta taassurot qoldirdi. Mamlakatdagi yoshlarni birlashtirib, innovatsion g'oyalarni ilgari surmoqda. Ularning har bir taklif va tashabbusini davlatimiz rahbari qo'llab-quvvatlaydi. Festivalda bu jihat yana bir bor o'z aksini topdi.

O'zbekiston yoshlari bilan muloqotlar va ular taqdim etgan loyihalar bizga ko'plab yangi g'oya va tashabbuslar uchun ilhom berdi. Ushbu festival kelajakda yanada ko'p hamkorlik qilish va birgalikda rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Butunjahon yoshlar festivalini tashkil etish va o'tkazish tajribasi kelgusi ishlarimizda asqatishi shubhasiz.



Nazrin GASIMOVA,

Qo'shimaslik harakati Yoshlar tashkiloti menejeri:

— O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari menda katta taassurot qoldirdi. Yuksak saviyada tashkil etilgan Butunjahon yoshlar festivalida yurtingiz yigit-qizlari ko'rsatgan mehmondo'stlik va samarali muloqot tashkilotimiz uchun katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlar o'rtasida do'stlik, hamkorlik munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiluvchi bu festival navqiron avlod vakillarining dunyoqarashini kengaytirish, o'zaro fikr almashish va g'oyalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishga zamin hozirlaydi.



Bu festival yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlar almashinuviga xizmat qilishi barobarida dunyoqarashi o'xshash, intellektual salohiyatli, shijoatli yoshlarni ezuq maqsad atrofida birlashtirdi.

Dilnozaxon

KATTAXONOVA,
Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari:

— O'zbekiston xalqaro maydonda yoshlar masalalari bo'yicha muhim tashabbus va takliflarni muntazam ilgari surib kelmogda. Mamlakatimiz BMT tomonidan "Yoshlar strategiyasi — 2030"ni namunalni amalga oshirish bo'yicha tanlab olingan

10 ta mamlakatdan biri ekani, Buxoro shahri 2022-yilda Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, Toshkent shahri esa 2024-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mintaqasida birinchi yoshlar poytaxti deb e'lon qilinganini shu yo'nalishtagi ishlarimizning e'tirofi sifatida qabul qilamiz.

O'tgan yili Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko'ra, O'zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakat deb tan olingani ham, hech shubhasiz, bizni yangi ummlar sari ruhlantiradi.

Butunjahon yoshlar festivalining yurtimizda tashkil etilishi ko'ngilga iftixor bag'ishlaydi. Navqiron avlodning



tajriba va g'oyalar almashinuvi uchun platforma yaratdi.

Butunjahon yoshlar festivali dunyo e'tiborini yana bir bor O'zbekistonga qaratdi. Bu navqiron avlod vakillarining ma'naviy, intellektual va jismoniy salohiyatini ro'yoga chiqarish, dunyo yoshlari bilan raqobatlasha oladigan sog'lom muhit yaratish, milliy an'ana va qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni keng targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston yoshlar bilan ishlashni mintaqaviy darajada tashkil etishga hamma vaqt alohida e'tibor qaratib kelgan. Zaminimizda o'tkazilgan Butunjahon yoshlar festivali ham ana shu tashabbusning yaqqol ifodasidir. Yoshlarning bilim va ko'nikmasini oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish, yigit-qizlarni yetuk, malakali kadrlar qilib tayyorlash, ijodiy festivallar va innovatsion hamkorlikni rivojlantirish, ular qalbida do'stlik va hamjihatlik ruhini kamol toptirish maqsadini o'zida mujassam etgan bu festival mamlakatlar bilan aloqalar rivojiga xizmat qiladi.



David CHUA,

Singapur Milliy yoshlar kengashi bosh ijrochi direktori:

— Mazkur festival yuksak saviyada tashkil etilgani bilan e'tiborga molik. O'zbekiston yoshlarining faolligi, ijodiy va innovatsion yondashuvlari bizni hayratga soldi. Yoshlar siyosati sohasidagi yutuqlar va yaratilgan imkoniyatlar katta taassurot qoldirdi.

Butunjahon yoshlar festivalida dunyoning turli nuqtasidan kelgan yigit-qizlar yangi startap loyihalar, ta'lim, tibbiyot, sport, axborot texnologiyalari yo'nalishtirishga rivojlantirishga qaratilgan g'oyalarni ilgari surdi.

Festivalda turli mamlakatlardan kelgan yoshlar bilan tajriba almashish va yangi do'stlik aloqalarini o'rnatish imkoniyati biz uchun katta ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston yoshlarining kelajakka ishonchi va ularga ko'rsatilayotgan ko'mak bizni ilhomlantirdi. Ushbu festival kelajakdagi hamkorliklar uchun mustahkam poydevor yaratadi.



Shohrux QO'CHQOROV,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi:

— Samarqand shahrida start olgan Butunjahon yoshlar festivali ishtirokchilarni betakror taassurotlarga oshino etdi. Turli mamlakatdagi iqtidorli, yetakchi yoshlari, eng avvalo, O'zbekistonda navqiron avlod vakillari uchun yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlarni, yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganini e'tirof etdi. Dunyo yoshlari fikr almashish asnosida o'zaro aloqa o'rnatildi.

Butunjahon yoshlar festivali aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

O'zbekiston mazkur festivalni tashkil etish orqali turli davlatlar yoshlariga ta'lim, tadbirkorlik, innovatsiya, ekologiya va axborot texnologiyalari startaplariga oid global loyihalarini muhokama qilish, ilgari surish va amalga oshirish uchun qulay platforma yaratib bergani e'tiborga molik.

Ivamoto KYOKO,
Japan ISMN Agency rahbari:

— Festival doirasida birinchi marta O'zbekiston — Yaponiya yoshlar forumi o'tkazildi. Unda QS reytingining ilg'or 500 taligiga kiruvchi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari ma'ruzachi sifatida ishtirok etdi. O'zbek yoshlarini qiziqitirgan mavzular bo'yicha muhokamalar tashkil qilindi. Biz o'z tajribamiz bilan o'rtoqlasha olganimiz va o'zbekistonlik yoshlarni Yaponiyadagi ilmiy tadqiqotlar bilan tanishtirganimizdan xursandmiz. O'rnatilgan aloqalar kelajakda yangi loyihalar va tashabbuslarni ishlab chiqishda yordam berishiga ishonchim komil.



Bubakari MAYGA,
Islom hamkorlik tashkiloti departamenti boshlig'i:

— Festival yuqori saviyada tashkil etilgani va unda qatnashganlarning ishtiroqi, bilimdonligi meni hayratga soldi. Bu O'zbekistonning yoshlar siyosati va madaniyatini dunyoga tanitish borasida katta qadamdir. Ushbu tadbirida Islom hamkorlik tashkiloti va mamlakatdagi yoshlari o'rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlangani muhim natija bo'ldi.



Nadim IRSHAD KAYANI,
Pokiston provinsiyalararo muvofiqlashtirish vazirining birinchi o'rinbosari:

— O'zbekistonda o'tkazilgan Butunjahon yoshlar festivali juda yuqori darajada tashkil etilgan tadbir sifatida yoshlarning global muammolarga yondashuvi, iqtidor va imkoniyatlarini namoyon qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Festivalda turli mamlakatlardan kelgan yoshlar bilan muloqot qilib, fikr va g'oyalarni bilan tanishish imkoniga ega bo'ldik. Bu yoshlar kelajakda o'z mamlakati va jahon hamjamiyatining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan yetakchilar bo'lib yetishadi.



Adam Adli ABD HALIM,
Malayziya yoshlar va sport vaziri o'rinbosari:

— Butunjahon yoshlar festivali, albatta, yuksak saviyada tashkil etilgan. Tadbir davomida turli mamlakatlardan kelgan yoshlar bilan tajriba almashish va yangi do'stlik aloqalari o'rnatish imkoniyati biz uchun juda qimmat bo'ldi. O'zbekiston yoshlarining ilm-fan, texnologiya, sport va madaniy sohalaridagi yutuqlari bizni qoyil qoldirdi. Ushbu festival hamkorlikning yangi yo'nalishtirishini ochib berdi va kelajakda birgalikda ishlashga undadi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Risolat MADIYEVA tayyorladi.

